

## HARBIY JASORATNING TARIXIY, ILMIY - NAZARIY TAHLILI

*Zohirov Nodirbek Ulug'bekovich*

*O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti  
magistratura tinglovchisi*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada harbiy xizmatchilarning jasorat tuyg'usi, uning tarixdagi o'rganilish darajasi, ilmiy jihatdan asoslanishi hamda nazariy tahlili muhokama qilinadi. Shuningdek, harbiy jasoratning namoyon bo'lish holatlari hamda sabablari ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** Harbiy xizmatchilar, jasorat, tuyg'u, qahramonlik, mardlik, vatan himoyasi, siyosiy, strategik, manfaat va boshqalar.

### KIRISH

Dunyo rivojlanishining turli xil davrlarida turlicha namoyon bo'lib, XXI asrga kelib yaqqol muammo sifatida qaralayotgan sohalardan biri fuqarolarda, ayniqsa, harbiy xizmatchilarda jasorat tuyg'usining namoyon bo'lish aspektlari dolzarbligicha hisoblanib, zamonaviy muammo sifatida e'tiborni o'ziga jalb qilmoqda. Unga ko'ra, mamlakatlarda yuzaga kelgan ichki hamda davlatlararo munosabatlarda harbiy xizmatchilardagi jasorat tuyg'usining po'rtanadek otilib chiqishi, o'z xalqining tinchligi, vatanining osoyishtaligi, hamda oilasining farovonligi uchun zarurat tug'lsa, jonini kamarbasta aylab, tarix zarvaraqlariga zarhal harflar bilan iz qoldirishdek ulkan sharaflari hamda savobli ishni qilishlik masalalari kundan-kunga kamayib bormoqda, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Tomirimizdagi qon jo'shib oqar, yuragimiz urib turar ekan, vatanning tinchligi hamda oilaning farovonligi yo'lida ko'rsatilgan jasorat mangu barhayotdir.

Birgina misol qilib tarixga nazar tashlasak shu ayon bo'ladiki, Yevropa davlatlaridan bo'lmish, Fransiyada ham harbiy jasoratga uzviy aloqador bo'lgan bir qancha qadimiy islohotlarni ko'rishimiz mumkin. Masalan: Harbiy jasorat xochi. **Harbiy jasorat xochi** (shuningdek, "**Harbiy jasorat uchun**" xoch; fransuzcha: *Croix de la Valeur militaire*) — bu Fransiyadagi tinchlikparvarlik missiyalari va Fransiyadan tashqarida xavfsizlik va ta'mirlash operatsiyalari paytida, shuningdek, davlat hokimiyatini himoya qilish, razvedka missiyalari va garovga olinganlarni ozod qilish bo'yicha maxsus missiyalar paytida jangovar vaziyatlardagi farq uchun beriladigan fransuz unvonidir.

Jazoir urushi paytida esa, 1956-yilga kelib, fransuz harbiy rahbariyati jang paytida ajralib turadigan fransuz askarlarini mukofotlash masalasiga duch keldi. Ularning nizomi Harbiy xochlarni topshirishga ruxsat bermadi, chunki rasmiy ravishda Jazoirdagi vaziyat harbiy operatsiya emas, balki kuch va huquqni qo'llash amaliyoti

deb hisoblangan. 1956-yil 11-aprelda “**Harbiy jasorat**” medali (fransuzcha: *médaille de la Valeur militaire*) ta’sis etilgan. O’sha yili Quruqlikdagi qo’shinlar davlat kotibi yangi mukofot maqomini 1956-yil 12-oktabrdagi farmon bilan tasdiqlangan Harbiy xochga o’xshash darajaga ko’tarishni taklif qildi — „Harbiy jasorat“ medali „**Harbiy jasorat**“ deb o’zgartirildi. **Xoch**, belgilarning ko’rinishini o’zgartirishsiz qoldirildi. Harbiy jasorat xochi — fuqarolik va harbiy qismlardan tashqari qurolli kuchlar a’zolariga tashqi topshiriqlar va jamoat xavfsizligini ta’minlash va qonun hamda tartibni tiklash bo’yicha operatsiyalar paytida jangovar harakatlardagi qahramonlik uchun, shu jumladan BMT tinchlikparvar missiyalari va NATO operatsiyalarida ishtirok etganligi uchun beriladigan mukofotdir. Xochni topshirish sanalari va joylari Mudofaa vazirining buyrug’i bilan e’lon qilinadi. Amalga oshirilgan harakatlarning ahamiyatiga qarab, harbiy hokimiyatning turli darajalarida xoch huquqini berish uchun jasoratni tavsiflovchi buyruqlar chiqariladi.

Jasorat – shaxsning turli xil favqulodda(ekstremal) holatlarda, tabiiy(texnogen) ofatlarda, shuningdek, urushda boshqalar manfaatlarini o’z manfaatidan ustun qo’yib, operativ qaror qabul qilib, yuzaga kelgan sog’lom qo’rquv ta’sirida yoki nosog’lom qo’rquvni yengib, yo yengmasdan turib, zarur bo’lsa jonini ham ayamasdan fido qilishga undaydigan psixologik tuyg’u hisoblanadi. Umuman olganda, bunday xususiyatga ega bo’lgan odam haqiqatan ham kuchli va irodali bo’ladi. Jasorat har bir insonning ijobiy fazilatlaridan biri bo’lib, u nafaqat o’zingiz va yaqinlaringizga, balki begonalarga ham yordam berishga tayyorligida namoyon bo’ladi. Xarakterning bunday oliyjanob sifati hayotning har qanday sohasida o’zini namoyon qilishi mumkin:

**1.Tabiiy ofat paytida.** Ba’zan shaxslar jismonan kuchli bo’lmaganda, lekin haqiqatan ham jasur odamlar muammoga duch kelganlarni qutqarishi hamda jasorat ko’rsatganini kuzatishimiz mumkin;

**2.Urushda.** Xattoki, bu yerda biz kuchli, jasur odamlarni va qiyin paytlarda do’stiga xiyonat qilishga tayyor qo’rqoqlarni ajrata olamiz;

**3.Kundalik hayotda.** Ba’zan shunday bo’ladiki, odam xavf ostida bo’ladi, lekin faqat bir nechtasi yordamga kelishi va jabrlanuvchiga yordam berishi mumkin. Bunday jasur odamlarni jasorat egalari deb atash mumkin.

Jasoratning quyidagi turlari ajratiladi:

**a)Psixologik** - insonning o’zini-o’zi kabi emas, uning afzalliklari va kamchiliklarini tan olish qobiliyati. Insonning bunday jasorati shaxsning rivojlanishi va hayotining strategiyasini belgilashga imkon beradi.

**b)Fuqarolik** - o’zini, shuningdek, jamiyatda, ishda, jamoada o’z huquqlarini himoya qilish qobiliyati. Bunday odamlar boshqalardan ajralib turishdan va o’z huquqlarini himoya qilishdan qo’rqmaydilar.

**c)Jangovar yoki instinktiv** - odamning jangga kirishga tayyorligi. Bu, birinchi navbatda, psixologik qobiliyatdir. Bunday jasorat tug’ma bo’lishi mumkin, lekin

u ko'pincha ota-ona tarbiyasida o'z aksini topadi. Ko'p narsa ota-onalarga va tarbiyada ishtirok etadigan barcha shaxslarga bog'liqdir. Jasorat ertami-kechmi har bir fikrlaydigan mavjudot duch keladigan qiyinchilikdir. Jasorat Pol Tillichning fikriga ko'ra, boshqa narsalar qatori, ruhning yo'qlikdan qo'rquvi va unga hamroh bo'lgan tashvishni yengish qobiliyatini o'z ichiga oladi deya ta'riflaydi.

Darhaqiqat, Mark Tsitseron jasorat haqida gapirar ekan, jasorat qo'rquvga qaramay nima qilish kerakligini ta'kidlaydi. Keling, ushbu fikrni isbotlashga harakat qilaylik. Jasorat - bu xavf qo'rquvni yengish qobiliyatidan iborat shaxsiy xususiyatdir. Ammo jasoratni qo'rquvning to'liq yetishmasligi bilan aralastirmaslik zarur. Favqulodda vaziyatlarda o'zini tuta oladigan odamlar ajoyib jasoratga ega. Bular urushlarda qatnashuvchi harbiylar, o't o'chiruvchilar, qutqaruvchilar, uchuvchilar va shifokorlar. Ular qiyin paytlarda taslim bo'lmaydilar, balki o'z qo'rquvlarini yengib, odamlar hayoti uchun kurashadilar.

Shunday qilib, jasorat degani: barcha qo'rquvlarga qaramay, noma'lum joyga borish. Bunga bizni Mark Tsitseron ishontiradi, uning fikriga qo'shilmaslik qiyin.

Aristotel esa, jasorat yaxshilik qilish uchun o'z hayotini xavf ostiga qo'yish (va hatto undan bajonidil voz kechish) tayyorligida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, qahramon o'limdan qo'rqmasligi va ezgulik kuchiga ishonishi kerak deya ta'kidlaydi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlasak maqsadga muvofiq bo'lardiki, harbiy xizmatchilar jasoratining tarixiy, ilmiy hamda nazariy tahlili globallashuv jarayonidagi dolzarb muammo sifatida o'z aksini topadi. Sharq va G'arb olimlarining jasorat to'g'risidagi qarashlari esa qadimgi davr hamda hozirgi kunning asosiy mezoni sifatida ayniqsa, harbiy xizmatchilarning xizmat faoliyatida ulkan motivatsiya vazifasini o'tamoqda. Qadimgi qabilalarning shuningdek, xalqlarning o'z millati va etnoslarini saqlashlari uchun ko'rsatgan jasoratlari ularning keyingi tinchliklari uchun zamin yaratgan.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. "Yangi O'zbekiston taraqqiyoti strategiyasi" Toshkent: O'zbekiston, 2022 y. 4-27 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk -G'alabaniy 75 yilligi kuniga bag'ishlangan nutqi "Mangu jasorat" nomli adabiyot Toshkent 2020 yil. 1-13b.
3. Ibragimov A.I. Sultonov X.X. "Vatan tuyg'usi" asari Toshkent 1996 y.
4. M.T.Oybek "Quyosh qoraymas" asari T.2020 y. 288 b.
5. Madaliyev R. "Talaba - yoshlarning harbiy vatanparvarlik tarbiyasida artpedagogik vositalarining ahamiyati" FarDU ilmiy xabarlar 2023 y. №1son 51-54 b.